

UDC (UO‘K, УДК): 821.152.1.09

## JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ONA OBRAZIGA YONDASHUVLAR<sup>2</sup>

*Raximova Umida Soliyevna*

*Urganch Ranch texnologiya universiteti*

*Pedagogika va filologiya fakulteti, dotsent v.b., PhD*

*Urgench, O‘zbekiston*

Email: [umida1976@list.ru](mailto:umida1976@list.ru)

ORCID ID: 0000-0003-3060-3833

### ANNOTATSIYA

Maqolada jahon adabiyotshunosligida ona obrazining o‘rganilishiga doir asosiy nazariy yondashuvlar keng tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ona timsoli adabiy matnlarda faqat tarbiyaviy yoki axloqiy tushunchalargina emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixoanalitik nuqtayi nazardan ham ko‘p qirrali obraz sifatida namoyon bo‘lishi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada ona obrazining turli madaniy va tarixiy kontekstlarda qanday talqin etilishi ham alohida e‘tiborga olingan. Jumladan, Preselfanni U. Makdeniels tadqiqotlarida zamonaviy Amerika adabiyotida ona–qiz munosabatlari orqali onalik mehnati konsepsiyasi yoritilgan bo‘lsa, Shveta K. Kapur izlanishlarida Viktorian davri adabiyotida onaning yo‘qligi orqali institutsional g‘amxo‘rlik tizimining shakllanishi ochib beriladi. Brennan Burksning tahlillarida esa ona obrazi xotira, istak va shaxsiy o‘shish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinib, uning psixologik va estetik jihatlari keng ko‘rsatib berilgan.

Qiyosiy tahlillar natijasida ona obrazi turli adabiy makonlarda bir vaqtning o‘zida universal va mahalliy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirishi aniqlangan. Bu esa onalik mavzusining badiiy asarlarda jamiyat, shaxs va madaniyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlarni ochib beruvchi markaziy tushuncha sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu tariqa maqola ona obrazini nafaqat badiiy-estetik, balki ijtimoiy va madaniy fenomen sifatida o‘rganishning dolzarbligini ilmiy asosda yoritib beradi.

### KALIT SO‘ZLAR

Ona obrazi, psixoanaliz, madaniy tahlil, Viktorian adabiyoti, xotira, shaxsiy o‘shish, institutsional g‘amxo‘rlik, jins va onalik, ijtimoiy munosabatlar.

**Received:** May 24, 2025

**Accepted:** July 13, 2025

**Available online:** September 3, 2025

<sup>2</sup>For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Raximova U. Jahon adabiyotshunosligida ona obraziga yondashuvlar. //

Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 3(7) — B. 24-37.

## APPROACHES TO THE IMAGE OF THE MOTHER IN WORLD LITERATURE

*Rakhimova Umida Saliyevna*

*Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)*

*Urgench Ranch University of Technology,*

*Faculty of Pedagogy and Philology*

*Urgench, Uzbekistan*

Email: [umida1976@list.ru](mailto:umida1976@list.ru)

ORCID ID: 0000-0003-3060-3833

---

### ABSTRACT

The article extensively analyzes the main theoretical approaches to studying the image of the mother in world literary studies. The research substantiates that the maternal figure in literary texts appears not only as an educational or moral concept but also as a multifaceted image from social, cultural, and psychoanalytic perspectives. The article also pays special attention to how the mother's image is interpreted in various cultural and historical contexts. Specifically, W. McDaniels' research highlights the concept of maternal labor through mother-daughter relationships in modern American literature, while Shveta K. Kapur's studies reveal the formation of institutional care systems through the absence of mothers in Victorian literature. Brennan Burke's analysis interprets the mother figure in close connection with processes of memory, desire, and personal growth, extensively illustrating its psychological and aesthetic aspects.

Comparative analyses have shown that the maternal image simultaneously embodies universal and local characteristics across different literary spaces. This demonstrates that the theme of motherhood serves as a central concept in literary works, unveiling the complex interrelationships between society, individual, and culture. Thus, the article scientifically illuminates the relevance of studying the mother's image not only as an artistic and aesthetic phenomenon but also as a social and cultural one.

---

### KEY WORDS

Mother figure, psychoanalysis, cultural analysis, Victorian literature, memory, personal growth, institutional care, gender and motherhood, social relations.

## ИЗУЧЕНИЕ ОБРАЗА МАТЕРИ В МИРОВОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

*Рахимова Умида Салиевна*

*Доктор философии по филологическим наукам (PhD)*

*Ургенчский технологический университет Ранч*

*Факультет педагогики и филологии*

*Ургенч, Узбекистан*

Email: [umida1976@list.ru](mailto:umida1976@list.ru)

ORCID ID: 0000-0003-3060-3833

---

### АННОТАЦИЯ

В статье подробно анализируются основные теоретические подходы к изучению образа матери в мировом литературоведении. В ходе исследования обосновано, что образ матери не только включается в литературные тексты как воспитательное или нравственное понятие, но и функционирует в них как многогранный образ, объединяющий социальный, культурный и психоаналитический аспекты. Также в статье особое внимание уделяется интерпретации образа матери в различных культурных и исторических контекстах. В частности, в исследованиях Преселфанны У. Макдениелс через отношения матери и дочери в современной американской литературе освещается концепция материнского труда, а в работах Шветы К. Капур раскрывается формирование системы институциональной опеки через значимое отсутствие матери в литературе викторианской эпохи. В анализе Бреннана Бёркса образ матери интерпретируется в тесной связи с процессами памяти, желания и личностного роста, широко раскрываются его психологические и эстетические аспекты.

В результате сравнительного анализа установлено, что образ матери в разных литературных пространствах одновременно воплощает в себе как универсальные, так и локальные черты. Это показывает, что в художественных произведениях тема материнства служит центральным понятием, раскрывающим сложные взаимоотношения между обществом, личностью и культурой. Таким образом, статья на достоверной научной основе освещает актуальность изучения образа матери не только как художественно-эстетического, но и как социального и культурного феномена.

---

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Образ матери, психоанализ, культурный анализ, викторианская литература, память, личностный рост, институциональное попечительство, гендер и материнство, социальные отношения.

## KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida ona obrazini o‘rganish nafaqat adabiy qahramonlar talqini orqali, balki har bir millatning ruhiyati, tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarini anglash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ona timsoli hayot manbai, ruhiy-ma’naviy taraqqiyot timsoli, barkamol shaxs kamol topishida asosiy omil sifatida qaraladi. Ona siymosi har bir davrning millatiga xos bo‘lgan ma’naviy va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi, har bir millatning tarixi, urf-odatlari va qadriyatlari ona timsoli orqali ifodalanadi. U insoniy sivilizatsiyada hayot va o‘limning sirli qudrati, qadimiy ijtimoiy-simvolik ma’nolarni mujassam etuvchi timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Ona nafaqat oila o‘chog‘ining posboni, balki jamiyatning ma’naviy tayanchi, tarbiya va madaniyatning asosiy ustuni hisoblanadi.

Turli davrlarda ona siymosi adabiyot, san’at va falsafada turli xil talqin qilingan. Masalan, qadimgi davrlarda ona muqaddaslik ramzi sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, milliy adabiyotimizda u mehr-muhabbat, sabr-bardosh va fidoyilik timsoli sifatida tasvirlangan.

## ASOSIY QISM

Har bir xalqning madaniy merosida ona obrazi alohida o‘rin tutadi. Jahon adabiyotida Ona Vatan, Ona tili kabi iboralar yuksak e’zoz bilan ishlatiladi. Chunki ona nafaqat farzand tarbiyalovchi, balki millat tarbiyalovchi shaxs sifatida ham qaraladi. Ona siymosi doimo markazdagi mavzu bo‘lib, u orqali insonning shaxsiy o‘sishi, jamiyatning axloqiy mezonlari va hatto madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot baholanadi. Shu bois, jahon adabiyotida ona obrazini tadqiq qilishda faqat bir mamlakat yoki bir asr bilan cheklanib qolmasdan, o‘zaro bog‘liqlikni, madaniy farqlar va umumiy jihatlarni ilmiy-tahliliy yondashuv orqali tadqiq etish muhim vazifa bo‘lib qoladi. Bu obraz faqat ijtimoiy rol emas, balki ekzistensial, falsafiy va ma’naviy tushunchalar tizimining ham markazidir. Har qanday davrda va jamiyatda ona siymosi doim qadrlanib, uning o‘rni va ahamiyati yuksak baholanadi, shu bilan birga jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti hamda bir qancha muammolarini ham ochib

beradi. Shunday ekan jahon adabiyotida ko'pgina tadqiqotchilar ona timsoli tasvirlangan asarlarni o'rganib, o'z tadqiqot ishlarida tahlilga tortgan.

Tadqiqotchi Preselfanni Uitfeld Makdeniels XX- asr Amerika ayol yozuvchilari asarlarida ona tasviri hamda ona-qiz munosabatlarini chuqur tahlil qiladi. Uning tahlili etnik va irqiy kelib chiqishi turlicha bo'lgan yettita amerikalik ayol yozuvchilarning jumladan, Doroti Allisonning "*Bastard Out of Carolina*", Toni Morrisonning "*Beloved*", "*Song of Solomon*", "Doroti Vestning *The Wedding*", Emi Tanning "*The Kitchen Gods Wife*", Kristina Garsiyaning "*Dreaming in Cuban*", Betti Smitning "*A Tree Grows in Brooklyn*", Paul Marshallning "*Brown Girl*", "*Brownstones*" romanlarida tasvirlangan ona obrazlarini tahlilga tortadi. U o'z ishida turli millat va irqiga xos bo'lgan onalik tajribasining universal va madaniyatlararo jihatlarini yoritadi.

U.Makdeniels tadqiqot ishida "onalik" atamasini, ayniqsa, ona farzandlarni tarbiyalashda ko'proq ma'suliyatni o'z zimmasiga olishi va ular o'rtasidagi bog'liqligini o'rganadi. Ma'lumki, farzand tarbiyasi deganda bolani voyaga yetkazish va o'n sakkiz yoshga to'ldirish tushuniladi. Elizabeth Jonson "*Mothers at Work: Representations of Maternal Practice in Literature*" (2000) asarida onalikning quyidagi ta'rifini ko'rib chiqadi: "*Onalik – bu mehnat, mehnatning bir turi. "Ona" so'zi munosabatlarni, darajani yoki g'amxo'rlik usulini ham ko'rsatishi mumkin, lekin birinchi navbatda, ona ishchi, bola tarbiyasi va kamolotiga mas'ul shaxsdir*" (McDaniels, P., 2004, 225). Tadqiqotchi o'z ishida tanlangan romanlardagi zo'ravon vaziyatlar qizlarni tarbiyalayotgan ona kontekstida onaning xatti-harakati va qiyinchiliklarni yengish strategiyasiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Shuningdek, qarama-qarshilik holatlari ushbu romanlardagi onalarni, ayniqsa, qizlarni voyaga yetkazishda o'xshash kurash mexanizmlarini ishlab chiqishga olib kelishini ta'kidlaydi. Ushbu strategiyalar muayyan madaniy guruhlar bilan chegaralanib qolmaydi, bu jamiyatning turli qatlamlarida umumiy onalik tajribasini taklif qiladi, deb izohlaydi. Ushbu tadqiqotning bo'limlari turli xil salbiy sharoitlarda bolalarni tarbiyalayotgan turli onalar o'xshash kurash strategiyalaridan

qanday foyda olishlari mumkinligini ko'rsatadi va ular ushbu kurash strategiyalarini eng kichikdan tortib eng katta muvaffaqiyatlarigacha ko'rib chiqadi. U.Makdenielsning tadqiqot ishi XX asr amerikalik ayollar asarlarida onalik rollari qanday qurilgani va ifodalangani haqida nozik tushuncha berib, adabiyotda onalik haqidagi kengroq munozaraga hissa qo'shadi. Uning madaniyatlararo yondashuvi onalikning universal jihatlari haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etadi, shu bilan birga turli millatdagi onalar duch keladigan noyob qiyinchiliklarni tan oladi.

Tadqiqotchi Shveta K.Kapur o'z tadqiqot ishida Charlz Dikkensning tanlangan asarlari orqali Viktoriya davridagi onaning ahamiyati, onasiz qahramonlarning takrorlanadigan mavzusini tahlil qiladi. K.Kapur Dikkens asarlarida ona timsollarining ko'pincha ishtirok etmasligini o'sha davrda sodir bo'lgan muhim ijtimoiy o'zgarishlar va siljishlar bilan bog'laydi, xususan, sanoat inqilobining oila tuzilmalariga ta'siri va mehribonlik uylari, ishxonalar kabi muassasalarning yuksalishiga olib kelganligini ta'kidlaydi. Sh.Kapur ushbu o'zgarishlarning bolalarga hissiy va psixologik ta'siri yozuvchining ularga kerak bo'lgan g'amxo'rlik va hissiy yordamsiz qolgan qahramonlar tasvirlarida yaqqol namoyon bo'lganini o'rganadi. Tadqiqotda, shuningdek, ishtiroksiz ona mavzusi aks ettirilgan katta ijtimoiy muammolar, jumladan, ayollarning roli va institutlarning yuksalishi o'rganiladi. Oxir oqibat, Sh.Kapur Dikkensning "Oliver Twist" va "Great Expectations" ("Katta umidlar") asarlaridagi ishtiroksiz ona mavzusi Viktoriya davrining kuchli tanqidini, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatning eng zaif a'zolariga ta'sir qilganini ochib beradi. Ona timsolining mavjudmasligi Dikkens asarlarida takrorlanadigan mavzu bo'lsa-da, bu har doim ham tom ma'noda yo'q emasligi, ba'zi hollarda ona obrazi hozir bo'lishi, lekin bolaga zarur bo'lgan hissiy yordamni bera olmasligini o'rganadi. Masalan, yozuvchining "Great Expectations" asarida Pipning onasi hech qachon tilga olinmaydi, lekin uning asosiy g'amxo'ri singlisi bilan bo'lgan munosabati hissiy jihatdan xarakterlanishini tahlil qilinadi (Kapoor, S. K. 2018, 876).

K.Kapurning tahlili Dikkens asarlarida onaning yo'qligi va buning bola hayotidagi ahamiyati u aytadigan individual hikoyalardan tashqariga chiqishini,

kattaroq ijtimoiy muammolar va bu muammolarning bolalarga hissiy ta'sirini ochib beradi. K.Kapur Dikkensning romanlari Viktoriya davrini kuchli tanqid qilishi, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatning eng zaif a'zolariga qanday ta'sir qilganini yoritadi. K.Kapurning tahlili Dikkensning ishtiroksiz onalarni tasvirlashi qanday qilib o'z davrining ijtimoiy qo'zg'olonlari haqida hikoya qilish vositasi va sharh sifatida xizmat qilishini har tomonlama o'rganishni taklif qiladi. Uning o'rganishlari adabiy tadqiqotlarni tarixiy kontekst bilan birlashtirgan holda, Viktoriya adabiyotidagi shaxsiy tajriba va kengroq ijtimoiy dinamikaning kesishishi haqida qimmatli fikrlarni beradi.

Tadqiqotchi Brennan Burks yigirmanchi asrning uchta muhim *“In Search of Lost Time”* (Prust *“Yo‘qotilgan vaqtni izlab”*), *“One Hundred Years of Solitude”* (Markes *“Yolg‘izlikning yuz yili”*) va *“East of Eden”* (Jek London *“Jannat sharqi”*) romanlarida ona siymolari istaklarining markaziy manbalari sifatida tasvirlanishini ko‘rib chiqadi. Uning ta’kidlashicha, har bir romanda ona bolalarning hissiy va psixologik rivojlanishini shakllantiradigan istak manbai hisoblanadi. Ona va bola o‘rtasidagi munosabatlar o‘ziga xoslik, sog‘inish va shaxsiy ziddiyat uchun asos bo‘lib, chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Bu onaning mavjudligi yoki yo‘qligi - xarakterlarning dunyo bilan qanday munosabatda bo‘lishiga va qo‘shimchalarning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi psixologik asos yaratadi (Rahimova U., 2022., 7198)

B.Burks romanlarning har biri ona-bola munosabatlaridagi onani rivojlanish va kurashning o‘ziga xos manbai: istak manbai sifatida tahlil qilishga imkon beradi, deb ta’kidlaydi. Onaning siri yashirin va ko‘pincha nomi toptalgan. B.Burks tadqiqotida patriarxal tizimlar ko‘pincha hikoyalarda onalarning ta’sirini cheklashi yoki buzishi, onalik rollarini qanday shakllantirishini ko‘rib chiqadi. Uning tahlili ijtimoiy me’yorlar onalik raqamlariga qo‘yilgan umidlar va cheklovlarni qanday belgilashini ochib berishdan iborat. Ko‘p hollarda onaning roli an’anaviy g‘amxo‘rlik bilan cheklanadi, bu esa hikoyaning mazmuniga qarab unga kuch berishi yoki unga bosim o‘tkazishi mumkin. Tadqiqotchi B.Burks uchta asarda tasvirlangan ona siymosini qiyosiy tahlil qildi (Burks, Brennan., 2018, 38). Prustning *“In Search of Lost Time”* romanida ona o‘tmish va hissiy qaramlikni

ifodalashi, qahramonning ma'no va xotira izlashini shakllantirishi, Markesning "One Hundred Years of Solitude" asarida onalar oilada tarix va davomiylik tashuvchisi sifatida afsonaviy rol o'ynashi, Steyinbekning "East of Eden" onalik tasvirlarining yo'qligi yoki buzilishi hissiy bo'shliqlarni keltirib chiqishi, asosiy belgilarning istaklari va kurashlariga ta'sir qilishini tahlil qiladi.

Har bir roman onalik haqidagi o'ziga xos nuqtayi nazarni, onalik ta'sirining shaxsiy va avlod o'ziga xosligini shakllantirishning turli usullarini namoyish etadi. Har bir roman onalikni sevgi va taranglik manbai sifatida tasvirlaydi, onaning borligi (yoki yo'qligi) xarakterdagi asosiy ziddiyatlarga olib kelishini ifodalaydi. Burks ona figuralari bolalarda sog'inch, aybdorlik va psixologik muammolarni qanday keltirib chiqarishini o'rganadi. Ushbu munosabatlarning murakkabligi romanlarda markaziy bo'lgan qaramlik, voz kechish va yarashuvning kengroq mavzularini ta'kidlaydi. B.Burks romanlar madaniy va adabiy farqlarga qaramasdan, uchalasi ham onalik ta'sirining umumiy mavzusiga ega bo'lib, ona-bola rishtasi insoniyat tajribasi va adabiy rivoyatda markaziy o'rinni egallashini isbotladi. Burksning ta'kidlashicha, adabiyotda onalar obrazi nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki jinsga, kuchga va hissiyotlarga nisbatan ijtimoiy munosabatlarni ham aks ettiradi. Bu romanlardagi istak, yo'qlik va sog'inchning takrorlanuvchi naqshlari ona siymolarining adabiy an'analar bo'ylab o'zlikni shakllantirishda asosiy kuch bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Ona haqidagi har qanday munozaraning ildiz otishiga imkon beruvchi unumdor zamin tarixan oqlangan shudgorning kuchi bilan ishlov beriladi va doimiy mavjud bo'lgan madaniy urug'larning ishonchi bilan urug'lantiriladi - o'tmish tarix va kelajakka o'sib borishi bilan bugungi kun doimiy ravishda mustahkamlanadi (Raximova U.S., Masharipova N. I.2024, 54).

Ushbu tadqiqot onaning mavqei bola-shaxsi, shaxsning rivojlanishi, uning insoniy fazilatlari, oilaning o'sishi va mustahkamlanishi, patriarxal madaniyatning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadi. Biroq, bu mavqe ham onaning potensialini birinchi bo'lib tanqid qiladi. U eng oliy tarbiyachi, hayotning buyuk qo'riqchisi, dunyoning yorug'ligini birinchi marta ko'radigan zulmatdir. Madaniyatning mavjudligi onaning farzandini qay darajada tarbiyalash qobiliyatiga

bogʻliq. Bu madaniy yuk onani onalik mavqeini belgilaydigan ona xususiyatlarini oʻz ichiga oladi (Рахимова, И. Р., Рахимова, У.С. 2024, 856).

B.Burks oʻz tadqiqot ishida onaning madaniyatdagi rolini adabiyot vositasida tahlil qilgan boʻlsa-da, bularning barchasi ostida yana muhimroq narsa yashiringanligini anglash mumkin. Tadqiqotchilar bahslarining har birida ona gender kurash maydonining belgisi boʻlib qoldi. Ammo farzandini uxlatishga yotqizayotgan, unga xayrli tun tilab oʻpayotgan, u bilan onalik yaqinligida yashayotgan ona oʻzining madaniy roli haqida qaygʻuradimi? Yoʻq! Ushbu holatlarning hech biri tunda farzandini oʻpishning ahamiyatini yoritmaydi. Ona-bola munosabatlarida mujassamlanib ulgʻayotgan bolaning metonimi madaniyat taraqqiyotini anglatadi, ammo bu munosabatlar makonida yaqinlik qanchalik his etilishini anglatmaydi. Dunyoda hech narsa ona oʻpichini almashtira olmaydi (Raximova, U. S., Raximova, D. M., 2024, 274).

Tadqiqotchi Naseb Razan oʻz tadqiqot ishida patriarxal jamiyatdagi Tulliver ayollari kurashiga qaratilgan Jorj Eliotning “The Mill on the Floss” (“Suv tegirmoni”) asaridagi murakkab ona-qiz munosabatlarining rivojlanishi va ijtimoiy tanqidlarni oʻrganadi. Unda Meggi Tulliverning hissiy va intellektual ehtiyojlari Tulliver xonim tomonidan qanday tutilganligi yorqin tasvirlangan, u oʻz davrining chuqur singib ketgan gender meʼyorlarini aks ettiruvchi ijtimoiy mavqe va moliyaviy xavfsizlikni hamma narsadan ustun qoʻyadi. Tadqiqotning taʼkidlashicha, romanda ayollarning cheklangan rollari va ona siymolarining doimiy taʼsiri gender va oilaviy munosabatlarning abadiy muammolarini hal qilishda hamon oʻz aksini topadi. Tadqiqotchi ushbu roman asosida ona obrazining faqatgina biologik emas, balki maʼnaviy va ramziy qatlamlarini ham tahlil qiladi. R.Nasebning fikricha, Eliot ona obrazini oila va jamiyatdagi beqarorliklarga qarshi turuvchi barqarorlik va davomiylik timsoli sifatida tasvirlaydi.

Tadqiqotda Tulliver xonim obrazining psixologik portreti, uning Maggi Tulliverga nisbatan taʼsiri hamda bu obraz orqali oila muhitidagi axloqiy tamoyillar qanday uzatilishi tahlil qilinadi. Naseb Eliot uslubida ona obrazining nafaqat syujetda, balki asarning gʻoya-mavzuviy tuzilishida ham asosiy tayanch sifatida aks

etishini ko'rsatadi. Shuningdek, ona obrazining tarixiy-madaniy kontekstdagi ramziy vazifasi, ya'ni oilaviy xotira, an'anaviy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar merosxo'ri sifatidagi o'rni ham yoritiladi.

R.Nasebning bu yondashuvi Eliot ijodida ona obrazining psixologik va sotsiomadaniy qatlamlarini birlashtirib, uni ramziy-realist obraz sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu esa G'arb adabiyotida ona obrazini tahlil qilishda ramzshunoslik, psixoanaliz va madaniyatshunoslik metodlarining uyg'unlashgan namunalaridan biridir (Рахимова, У. С., Курамбаева, А. Д., 2024, 26). Tadqiqotda aytilishicha, Tulliver xonimning Meggiga bo'lgan munosabati uning hal qilinmagan ijtimoiy umidlar bilan bog'liqligini aks ettiradi va u mavjud bo'lgan cheklovlarni davom ettiradi. Tahlil Tulliver xonimning patriarxal me'yorlarga sodiqligidagi o'tkir istehzoni ochib beradi, bu romanning Viktoriya davridagi gender cheklovlari va ularning doimiy dolzarbligi haqidagi tanqidiy pozitsiyasini mustahkamlaydi (Naseb, Razan A., 2024, 86).

R.Naseb roman tahlili davomida ona obrazlari ishtirokida dialog, hikoya va tavsifiy parchalar, onalik bilan bog'liq ramziy tasvirlar (uy, daryo, maishiy bo'shliqlar), hissiy ohang va onalik figuralarining boshqa qahramonlarga, ayniqsa Meggiga ma'naviy ta'sirini o'rgandi. U ona figurasini hissiy va axloqiy asosning ramzi sifatida talqin qildi, onalar (yoki onaga o'xshash shaxslar) doimiy o'zgarishlar (moliyaviy halokat, ijtimoiy bosim, gender umidlari) dunyosida barqarorlikning tashuvchisi ekanligi haqida munozara yuritdi. Tulliver xonim - amaliy, hissiy jihatdan himoyalangan, ammo axloqiy jihatdan markazlashgan va hatto inqiroz sharoitida ham Tulliver oilasini mustahkamlaydigan ayol sifatida tahlil qilinadi. Onaning sukunati, passiv chidamliligi yoki g'amxo'rliги barqarorlik va davomiylikning sokin kuchi sifatida qaralishi mumkin (Raximova U.S., Masharipova N., 2024, 95). Meggi Tulliver - onalik ta'sirida shakllangan va kelajakdagi onalik shaxsini o'zida mujassamlashtirgan shaxs sifatida o'rganilgan. Quyida keltirilgan parchada Tulliver xonimning o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan:

*“Mrs. Tulliver was what is called a good manager, and spent a great deal of her time in looking after the linen, and in mending and making. She was a woman who kept herself respectable, and had a great sense of her duty as a wife and a mother; but she was not given to questioning or theorizing, and rarely attempted to understand the minds of those about her. She thought her duty was to make the house comfortable and keep the children tidy and good.”* - *“Missis Tulliver mohir xo‘jalik yurituvchi ayol bo‘lib, vaqtining ko‘p qismini choyshablarni nazorat qilish, yamash va tikish bilan o‘tkazardi. U o‘zini hurmatga sazovor tutadigan, xotin va ona sifatidagi burchlarini chuqur anglaydigan ayol edi. Biroq u savol berish yoki nazariyalar yaratishga moyil emas, atrofidagilarning fikr-mulohazalarini tushunishga kamdan-kam urinardi. U uyni qulay qilish, bolalarni ozoda va yaxshi xulqli etib tarbiyalashni o‘zining asosiy vazifasi deb bilardi.”* (Naseb, Razan A., 2024, 83) R.Naseb Tulliver xonimning uyni boshqarish va axloqiy tartibni saqlash, o‘z vazifasini ziddiyatsiz xotirjamlik bilan bajarayotganligini, uning “burch” tuyg‘usi uni davomiylik ramzi sifatida ko‘rsatilishi - u oilaning boyligi pasayishni boshlaganda ham muntazamlik va hurmatni saqlaganligini tahlil qiladi.

R.Nasebning ta’kidlashicha, ona obrazi hikoyani nafaqat xarakter sifatida, balki avloddan-avlodga o‘tadigan qadriyatlar ramzi sifatida tuzadi. Ona urf-odatlarini, xotirani va oilaviy o‘ziga xoslikni ifodalashi mumkin, uning atrofidagi tartibsizlik va nizolarni muvozanatlashtiradi (Rahimova U., 2022, 210). Tahlil Eliotning onalik xarakterini Viktoriya davridagi ayollik va onalik ideallari kontekstida joylashtirishi mumkin, bu Eliotning ushbu me’yorlarni qanday aks ettirishi va tanqid qilishini ko‘rsatadi.

## **XULOSA**

Jahon adabiyotida ona obrazini o‘rganish — faqatgina adabiy personajlarni tahlil qilish emas, balki madaniy paradigmalarni, ijtimoiy tartiblar va falsafiy kontseptlarni o‘rganishni ham nazarda tutadi. Onalik — adabiyotdagi eng murakkab va ko‘p qatlamli mavzulardan biri bo‘lib, u orqali millatning tarixi, shaxsning rivojlanishi va insoniy tajribaning umuman ko‘lami ko‘zga tashlanadi. Ushbu tahlillar jahon adabiyotida onalikning bir tomondan umumiy, boshqa tomondan esa madaniy xos xususiyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Makdeniels universal kurash

strategiyalarini, Kapur Viktoriya davridagi institutsional ta'sirlarni, Burks esa onaning psixologik ta'sirini va istak bilan bog'liq simmetrik pozitsiyasini ko'rsatib beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Burks B. The source of desire: The mother in three twentieth century novels: Master of Arts (M.A.) thesis. – University of Dayton, 2013. – 38 p.
2. Essif D. Representations of motherhood in French visual culture, 1910–1940: Dissertation. – Chapel Hill, 2018. – 3162 p.
3. Kapoor S. K. Analysing the significance of the absent mother in the Victorian-era literature through select works of Dickens. – Association of Academic Researchers and Faculties, 2018. – 875 p.
4. McDaniels P. W. Mothering modes: Analyzing mother roles in novels by twentieth-century United States women writers: Doctoral dissertation. – Louisiana State University, 2004. – 1825 p.
5. Naseb R. A. The maternal figure symbolizes stability and continuity in the novels of George Eliot: A close reading of *The Mill on the Floss*: Master's thesis. – University of Tennessee, 2024. – 83 p.
6. Rakhimova U. S., Alisherovna B. S. The spiritual state of the aging mother of Anne Enright's *The Green Road* // *Science and Innovation*. – 2024. – Vol. 3, Special Issue 2. – P. 94–98.
7. Raximova U. S., Raximova D. M. Turli xil matnlarda metaforalarning kognitiv xususiyatlari // *Analytical Journal of Education and Development*. – 2024. – Vol. 4, No. 12. – P. 272–276.
8. Raximova I. R., Raximova U. S. O'zbek–ingliz adabiyotida ayol siymosining qiyosiy tahlili // *Ekonomika i sotsium*. – 2024. – No. 10-2 (125). – P. 856–864.
9. Raximova U. S., Kurambayeva A. D. Ingliz va o'zbek tillarida idiomalarning leksik-semantik tahlili // *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*. – 2024. – Vol. 4, No. 12. – P. 24–28.

10. Рахимова У. С. The role of metaphors in the description of motherhood in Anne Enright's short stories // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. – 2022. – Т. 12, № 4. – С. 208–213.
11. Рахимова У. С., Машарипова Н. И. AYOL XARAKTERINI IFODALOVCHI PAREMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TASNIFI // *Eurasian Journal of Academic Research*. – 2024. – Т. 4, № 11-2. – С. 54–59.
12. Rakhimova U. S., Khallieva G. I. The depiction of age in Enright's short stories // *Journal of Positive School Psychology*. – 2022. – С. 7198–7202.

### REFERENCES

1. Burks, B. (2013). *The source of desire: The mother in three twentieth century novels* (Master's thesis, University of Dayton). University of Dayton.
2. Essif, D. (2018). *Representations of motherhood in French visual culture, 1910–1940* (Doctoral dissertation). University of North Carolina at Chapel Hill.
3. Kapoor, S. K. (2018). *Analysing the significance of the absent mother in the Victorian-era literature through select works of Dickens*. Association of Academic Researchers and Faculties.
4. McDaniels, P. W. (2004). *Mothering modes: Analyzing mother roles in novels by twentieth-century United States women writers* (Doctoral dissertation, Louisiana State University). LSU Digital Commons.
5. Naseb, R. A. (2024). *The maternal figure symbolizes stability and continuity in the novels of George Eliot: A close reading of The Mill on the Floss* (Master's thesis, University of Tennessee). University of Tennessee.
6. Rakhimova, U. S., & Alisherovna, B. S. (2024). The spiritual state of the aging mother of Anne Enright's *The Green Road*. *Science and Innovation*, 3(Special Issue 2), 94–98.
7. Raximova, U. S., & Raximova, D. M. (2024). Turli xil matnlarda metaforalarning kognitiv xususiyatlari. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(12), 272–276.

8. Raximova, I. R., & Raximova, U. S. (2024). O‘zbek–ingliz adabiyotida ayol siyimosining qiyosiy tahlili. *Ekonomika i sotsium*, (10-2)(125), 856–864.
9. Raximova, U. S., & Kurambayeva, A. D. (2024). Ingliz va o‘zbek tillarida idiomalarning leksik-semantik tahlili. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 4(12), 24–28.
10. Rakhimova, U.S. (2022). The role of metaphors in the description of motherhood in anne enrigh't's short stories. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(4), 208-213.
11. Raximova U.S., Masharipova N. I. (2024). Ayol xarakterini ifodalovnchi paremalarning lingvokulturologik tasnifi. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(11-2), 54-59.
12. Rakhimova U.S., Khallieva G. I. (2022). THE DEPICTION OF AGE IN ENRIGHT'S SHORT STORIES. *Journal of Positive School Psychology*, 7198-7202.